

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2021.PED/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YULCHIYEVA DILDORA XABIBULLAYEVNA

OILADA BARQAROR IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI
TA’MINLASHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna

Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-pedagogik
mexanizmlarini takomillashtirish3

Юлчиева Дилдора Хабибуллаевна

Совершенствование социально-педагогических механизмов обеспечения
устойчивых социальных отношений в семье.....21

Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna

Improvement of social and pedagogical mechanisms for ensuring stable social
relations in the family.....41

Elon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2021.PED/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YULCHIYEVA DILDORA XABIBULLAYEVNA

OILADA BARQAROR IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI
TA’MINLASHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped.2140 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.moiti.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Riskulova Kamola Djumayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva Aziza Shamsutdinovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi
PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "8" iyul soat
10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti,
Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko'chasi, 51-uy. Tel: (0-371) 267-05-36; faks (71)
267-03-92; e-mail:mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com

Dissertatsiya bilan “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko'chasi, 51-uy. Tel.: (0-371) 267-05-36; faks (71) 267-03-92; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "24" iyun da tarqatildi.
(2023-yil "24" iyun dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



T.B.Matibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi o'rinbosari,
Sotsiologiya fanlari doktori,
professor

S.K.Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, falsafa fanlari
bo'yicha falsafa doktori

Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oilaviy munosabatlar muammosi, uning insoniyat taraqqiyotiga ta'siri, oilalar farovonligiga ijtimoiy omillarning bog'liqligini aniqlash va oilalarning baxtlik darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmni yaratish dolzarb hisoblanadi. Oiladagi barkamol farzand tarbiyasini yanada yuksaltirish, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, pedagogik imkoniyatlarini ke'gaytirish ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda o'z hayotiy maqsadlarini belgilashda oilaviy munosabatlarni tartibga solish, farzand tarbiyasida muhim manzil, ya'ni barqaror oila – tarbiya maskanini yaratish, oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va yoshlarni oilaga tayyorlashning amaliy yo'llarini yaratish muhim hisoblanadi¹.

Dunyoda bugungi kunda bir qancha ilmiy tadqiqot olib boruvchi markazlarda oila va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligida barkamol farzandni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, jamiyatdagi shaxslar o'rtasida barqaror munosabatlarning o'rnatilishi kabi masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, globallashtirish shiddat bilan kechayotgan bir paytda ko'pgina mamlakatlarning asosiy maqsadi jamiyat, ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut, sotsializatsiya va shaxsning ijtimoiy holati, farzand kamoloti, xususan, oila muhitida barqaror ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish orqali ularga shart-sharoitlar yaratish, oilada ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy-ijtimoiy tarbiya masalalariga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ko'lamini yo'lga qo'yish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarida tadqiqotlarni amalga oshirish kerakligi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish, ularning turli soha hamda tarmoqlarda o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish, huquqiy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Mazkur sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

¹ Helping Families Combat Substance Use: Connecticut Family Stability Project
https://govlab.hks.harvard.edu/files/connecticut_pfs_project_feature.pdf

Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli qarori hamda mazkur sohaga taaluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash muammosi bugungi kunda murakkab, fanlararo masalalardan hisoblanadi. Uning nazariy metodologik bazasi nafaqat umumiy ijtimoiy-psixologik, pedagogik, falsafiy tadqiqotlar sifatida, balki sotsiologik asarlar bilan ifodalanadi. Sharq mutafakkirlaridan A.Fitrat, A.Avloniy, M.Behbudiy, Kaykovus, Farobiy, Ibn Sinolarning ilmiy asarlarida ushbu masala alohida ko'rib chiqilgan.

Respublikamizda N.Egamberdiyeva, O.Musurmanova, M.Quronov, Sh.Sodiqova, M.A'zamova, O.Jamoldinova, M.Inomova, F.Abdurahmonova, N.Yusupova, S.Rahimova, G'.Shoumarov, V.Karimova, A.Xasanboyeva, S.Yo'ldosheva, Z.Qurbonniyozova, R.Bozorova, Sh.Taylanova, H.Norqulov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida oilaviy munosabatlar hamda ijtimoiy-pedagogikada tarbiyaning muayyan tarmoqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, oila muhitini barqarorlashtirishda er-xotin munosabatlarining muhim ekanligi xususida yetarlicha pedagogik tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlaridan L.Balandina, R.Berdnikova, N.Bessonova, A.Kukulyar, T.Gutova, Y.Pidshmorga, Y.Losiy, L.Sinitsaru, G.Ldokova, L.Faxrutdinova, V.Muxina, I.Muzinova, V.Korotkova, A.Petrovskiy, Y.Galaguzova, M.Galaguzova, A.Mudrik, K.Shtaynerlarning tadqiqotlarida oilalarni o'rganish doirasida oiladagi munosabatlarning ijtimoiylashuv mexanizmlariga turlicha yondashuvlar keltiriladi.

Jahonda oila institutini rivojlantirishning nazariy muammolarini tushunishga I.Azarov, I.Grebennikov, O.Kont, F.Engels, J.Dogbe, D.Keremateng, M.Opoku, W.Nkesia, Ch.Hammond, Sh.Guss, A.Morris, C.Bosler, Sh.Castle, J.Hays-Grudo, D.Horm, I.Kim, S.Dababnah, J.Lee, E.Langley, V.Totsika, R.Hastings, T.Bailey, J.Yan, S.J.Schoppe-Sullivan, X.Feng kabi olimlar oila barqarorligini ta'minlashda nikohdan oldingi munosabatlarning muhimligi hamda oilalarning ijtimoiylashuvi bo'yicha tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shdilar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-28-sonli "Oilada barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish", JHBL-4-sonli "Oilada barqaror ijtimoiy muhitni yaratishda maishiy gigiyenik funksiyaning o'rni" (2020–2021-y.) mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

oilalarda ijtimoiy barqaror munosabatlarga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni o'rganish;

oila institutini mustahkamlashda er va xotinning oiladagi rollari taqsimotining mutanosibligini o'rganish;

oilalarda barqaror ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratishda turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini aniqlash;

oilalar barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik trening dasturini yaratish;

oilalari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik model yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oilalar barqarorligini ta'minlashda er va xotin munosabatlarining o'rnini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlariga Andijon va Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi jami 718 ta oila jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini oilada ma'naviy-axloqiy munosabatlarni barqarorlashtirishning ijtimoiy-pedagogik omillari, vosita, shakl va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, ekspert baholash, nazariy tahlil, faoliyat natijalarini o'rganish, savol-javob, umumlashtirish, materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"uy-ro'zg'or stereotiplari", "muloqot madaniyati", "ota obrazi portreti" haqidagi ustanovkalarni korrektsiyalash orqali er-xotinlar rollar taqsimotining integratsiyalashuvi va oilalarda sog'lom psixologik muhitning barqarorligini ta'minlashi isbotlangan;

o'zaro ishonch, oila a'zolarini e'zozlash, farzand tarbiyasidagi yakdillik, bir umr birga yashash istagi kabi individual omillarni psixologik treninglar orqali rivojlantirish natijasida oilalarda barqaror ijtimoiy munosabatlar yaratilishi asoslangan;

"oilada barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlash" trening dasturi orqali er-xotinlardagi o'zaro hurmat, hissiy yaqinlik va o'zaro tushunish kompetensiyalarini shakllantirish asosida oilalardagi sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit shakllanishi aniqlangan;

“oilaviy qadriyatlarga munosabat”, “erkak oilaning haqiqiy himoyachisi”, “o‘z oilasini boshqa oilalar bilan taqqoslash” kabi ijtimoiy-pedagogik omillarni psixokorreksiyalash orqali oilalarda barqaror ijtimoiy munosabatlarni yaratish dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahallarda oilalarni kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Mahallarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish” nomli uslubiy qo‘llanma (№ DGU 170064) yaratilgan va joriy etilgan;

“Xotin-qizlarni oilaga tayyorlashning amaliy-metodologik asoslari platformasi” (№ DGU 12273) yaratilgan hamda “Turmushga chiqmagan qizlarni oilaga tayyorlash” va “Maktab yoshidagi qizlar bilan ishlash” mavzusida o‘quv-uslubiy majmualari chop etilib, mahalla xotin-qizlar faollarining ish jarayonida qo‘llashlari uchun joriy etilgan;

hududlar kesimida oila barqarorligiga aks ta‘sir ko‘rsatayotgan ichki va tashqi tahdidlarni o‘rganish va sabablarini aniqlashda oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni ta‘minlashda oila, xotin-qizlar, shuningdek, respublikadagi ijtimoiy-pedagogik, psixologik masalalar bo‘yicha mutaxassislar ish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan “Oilalarning barqarorligini ta‘minlovchi ijtimoiy-pedagogik trening dasturi” ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llangan yondashuvlar, usullar va mexanizmlar hamda ularning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan olingani, empirik o‘rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oilaviy munosabatlarda ma‘naviy-axloqiy muhit, pedagogik-psixologik yondashuv, oilaviy ijtimoiy munosabatlar holatini bashorat qilish uchun foydalidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oila va xotin-qizlar faollari bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua, uslubiy qo‘llanmalar, seminar-trening dasturini yaratishda ijtimoiy pedagogika sohasida milliy tarbiya usullari, oilalarda ma‘naviy-axloqiy munosabatlar barqarorligini ta‘minlashda ijtimoiy pedagogika tamoyillaridan foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Ushbu dissertatsiyaning asosiy tamoyillari, xulosalari va tadqiqot natijalaridan oilalarni pedagogik-psixologik, ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish metodikasini yanada boyitish, shu bilan birga, oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘quv dasturlari hamda oilaviy nizolarni tashxislash bilan bog‘liq seminar-trening dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya ishining natijalari oiladagi barqaror munosabatlar va umuman, oila muammosi bo‘yicha keyingi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar uchun muhim ma‘lumot bazasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

“uy-ro‘zg‘or stereotiplari”, “muloqot madaniyati”, “ota obrazi portreti” haqidagi ustanovkalarni korreksiyalash orqali er-xotinlarning rollar taqsimotining

integratsiyalashuvi va oilalarda sogʻlom psixologik muhit barqarorligini taʼminlash isbotlanganiga oid yangiligi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining “Oilada barqaror ijtimoiy muhitni taʼminlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusida amaliy loyiha rejasiga kiritilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 16-dekabrda №01-09/1242A-sonli maʼlumotnomasi). Natijada oila barqarorligiga salbiy taʼsir qilayotgan ichki va tashqi tahdidlarni oʻrganish hamda sabablarini aniqlash, oilalarda axloqiy munosabatlarni sogʻlomlashtirish mexanizmi takomillashtirilgan;

oʻzaro ishonch, oila aʼzolarini eʼzozlash, farzand tarbiyasidagi yakdillik, bir umr birga yashash istagi kabi individual omillarni psixologik treninglar orqali rivojlantirish natijasida oilalarda barqaror ijtimoiy munosabatlar yaratilishi asoslanganiga oid taklifi “Oilalarning tarbiyaviy-taʼlim salohiyatini yanada takomillashtirish, jamiyatda milliy qadriyatlarni saqlash, oilalarda maʼnaviy-axloqiy munosabatlarni, sogʻlom turmushni faollashtirish hamda oilalarning farovonlik darajasini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” bandiga qoʻshimcha tarzda “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining amaliy loyihasiga kiritilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 16-dekabrda №01-09/1242A-sonli maʼlumotnomasi). Natijada hududlardagi oila va jamiyat hayotiga integratsiya jarayonida nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni maqsadli shakllantirish, oilaviy tarbiya va uning shakllari, oilalarning baxtlik indikatorlarini reintegratsiyalash orqali oilalarning farovonlik darajasini oshirish faoliyatiga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan va samarali natijalarga erishilgan;

“oilada barqaror ijtimoiy muhitni taʼminlash” trening dasturi orqali er-xotinlardagi oʻzaro hurmat, hissiy yaqinlik va oʻzaro tushunish kompetensiyalarini shakllantirish asosida oilalardagi sogʻlom ijtimoiy-maʼnaviy muhit shakllanishi aniqlanganligiga oid takliflari “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining “Oilada barqaror ijtimoiy muhitni taʼminlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” nomli loyiha rejasiga kiritilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 16-dekabrda №01-09/1242A-sonli maʼlumotnomasi). Natijada mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini toʻliq yuzaga chiqarishda ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga koʻtarish kabi samarali koʻrsatkichga erishilgan;

“oilaviy qadriyatlarga munosabat”, “erkak oilaning haqiqiy himoyachisi”, “oʻz oilasini boshqa oilalar bilan taqqoslash” kabi ijtimoiy-pedagogik omillarni psixokorreksiyalash orqali oilalarda barqaror ijtimoiy munosabatlarni yaratish dalillanganiga oid taklif va tavsiyalari “Oilalarning tarbiyaviy-taʼlim salohiyatini yanada takomillashtirish, jamiyatda milliy qadriyatlarni saqlash, oilalarda maʼnaviy-axloqiy munosabatlarni, sogʻlom hayotni shakllantirish hamda oilalarning farovonlik darajasini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” bandiga qoʻshimcha tarzda “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining amaliy loyihasiga kiritilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 16-dekabrda №01-09/1242A-sonli maʼlumotnomasi). Natijada hamkorlik orqali bolalarni shaxs sifatida rivojlantirishda umummilliy va davriy qadriyatlar indikatorlari ambivalent sifatida shakllanganligini amaliyotda qoʻllash, ularni amaliyot davrida bartaraf eta olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 17 ta: 5 ta xalqaro va 12 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta uslubiy qo'llanma, OAKning falsafa doktorlik dissertatsiyalari uchun tavsiya etilgan xorijiy va milliy ilmiy nashrlarda jami 6 ta maqola hamda 9 ta tezis e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 8 paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 124 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqotning dolzarbligi, zarurati, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, uning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va ishning hajmi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **"Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida, oila jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar ta'sirida bo'lib, uning rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyatning mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy hayotning dinamikasi doimiy ravishda oila hayotiga yangi xususiyatlarni kiritib boradi. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq oilaning tuzilishi, uning vazifalari, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiati, tashqi dunyo bilan munosabatlari o'zgarib bormoqda.

Jamiyatning oilaga ta'sir etish jarayoni biryoqlama bo'lmaydi, teskari jarayon – oilaning jamiyatga ta'siri mavjud bo'lib, unda kelajakdagi shaxsni har tomonlama shakllantirishning murakkab va nozik jarayoni sodir bo'ladi. Oilada shaxsning qirralari aniqlanadi, uning ichki dunyosi rivojlanadi, jamiyat madaniyatiga bosqichma-bosqich kirib boradi. Inson oilada ong va xarakter asoslarini oladi, bu yerda uning qarashlari va munosabatlari, axloqiy va irodaviy fazilatlarini, jamiyat oldidagi burchlari, dunyoqarashi e'tiqodi va ijtimoiy yo'nalishi haqida tushunchalar shakllanadi. Jamiyat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari shaxsning oilada nimani olib, keyinchalik jamiyatga nima olib kelishiga bog'liq bo'lgan amaldagi holati o'rganilgan.


Dissertatsiyaning **"Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida, oila barqarorligining ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik tahlili yoritilgan. Unda olingan natijalar oilalarni barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillarni aniqlash orqali, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim pedagogik va psixologik omillarning xususiyatlari ko'rsatilgan. Oilalarni ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan aspektlarni tasniflab berilgan.

Shu munosabat bilan, oiladan oldingi motivatsiyaning o'ziga xosligi ham ochib beriladi, bu oila barqarorligining belgilangan mezonlariga asoslanib, turli yo'naltirilgan subyektiv maqsadlarning kombinatsiyasi tufayli ishlaydigan tizim sifatida belgilanishi mumkin. Ushbu bobda oila a'zolarining ba'zilarida qadriyat munosabatlarini so'zsiz o'zaro inkor etishi, ularning bir-biridan insoniyat

jamiyatining asosiy tamoyillariga zid bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida turli faoliyatni amalga oshirishning nazariy-metodologik tomonlari ko'rib chiqilgan.

Ijtimoiy munosabatlarni ilmiy tahlil qilish imkoniyati, o'z navbatida, oilada shaxsning uyg'un rivojlanishi bilan shaxsning rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash vazifasini oldimizga qo'ydi. Oila asosiy ijtimoiy tarbiya vazifasini bajaradi, undan shaxsning ijtimoiylashuvi, uning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish boshlanadi. Shuning uchun oilaviy munosabatlarning barqarorligi, uning kelib chiqishi va mezonlari ushbu dissertatsiya tadqiqotining konseptual yo'nalishini oldindan belgilab berdi.


Shu asosda oila haqidagi ilmiy g'oyalar tarixiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Oila – barqaror ijtimoiy aloqalar asosida vujudga keladigan va shaxsning mavjudligiga hayotiy faoliyat xarakterini beradigan, shu bilan uni mazmunli, yaxlit va barqaror qiladigan shaxsning ijtimoiy mavjudligi shaklidir. Oilada insonlarning o'zaro munosabatlarda ijtimoiylashuvi turli omillar, agentliklar bilan hamkorlikda va bir qator ijtimoiylashuv mexanizmlari asosida amalga oshiriladi.



1-rasm. I.V.Mudrik bo'yicha oilalarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik va pedagogik mexanizm

Psixologik va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarga I.V.Mudrikning fikricha, quyidagilarni kiritish mumkin: insonning unga ta'sir qiladigan hayotiy muhim obyektlarni eslab qolishi, tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lishidir. Tavakkal – biror-bir “namuna”ga o'xshash uchun harakat qilish. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro'-e'tiborli shaxslarga

xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko‘rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli oilaviy muhitda “Men” obrazlari orasidagi real va xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu ijtimoiy mexanizm yordamida barqaror ijtimoiy muhitda insonning shakllanishi ro‘y beradi. Inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo‘shnilar, o‘rtoqlariga xos me‘yor, qarash steriotiplarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi va insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlar bilan o‘zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to‘plashi mumkin.




2-rasm. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta‘minlashga mo‘ljallangan trening mashg‘ulotlari strukturasi

Mazkur trening qo‘yilgan quyidagi maqsadlarga erishish imkoniyatini vujudga keltiradi: qulay oilaviy muhitni yaratish uchun xarakterning ma‘lum sifatlari muhimligini anglash; ongli sharoitda mashq qilish va “aloqa bloklarini” olib tashlash, “yopiq va ochiq” shaxslararo o‘zaro ta’sirning og‘zaki bo‘lmagan belgilarini o‘qish; har bir oila turli xarakterga, qadriyatlarga, qiziqish va talablarga ega bo‘lgan shaxslar uyushmasi ekanligi haqidagi g‘oyani umumiy tarzda amalda ko‘rsatish; kommunikativ imkoniyatlar doirasini kengaytirish, empatik qobiliyatini mustahkamlash; hissiy reaksiyalarni kuchaytirish va sherikka e’tiborni qaratish ko‘nikmalarini o‘rgatish, sherikda “teskari aloqa” berish qobiliyatini o‘rgatishni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o‘tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobida oilalarda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, psixologik, estetik munosabatlarni ta’minlash darajasini baholash indikatorlari aniq bo‘yicha tajriba-sinov tahlil qilingan.

Tadqiqotda anketa orqali so‘rov o‘tkazish usulidan birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish metodi sifatida foydalanildi. Tanlash maqsadli ravishda amalga oshirilib, jins, yosh, hudud, oilaviy holatiga ko‘ra **718 ta** respondent qamrab olindi. Tadqiqot davomida **Toshkent** (245 nafar), **Samarqand** (233 nafar) va **Andijon** (240 nafar) shaharlaridagi **18–60 yosh** oralig‘idagi oilali respondentlar ishtirok etdi. Respondentlarning **56 foizini** ayollar va **44 foizini** erkaklar tashkil etdi.

Natijalarga ko‘ra, aksariyat respondent uchun oiladagi o‘zaro **ishonch hissi** (69%) barqaror oilaviy munosabatlarni ta’minlaydi. Har ikkinchi javob bergan respondent esa **farzandlari** (57%) oiladagi munosabatlarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga egaligini aytib o‘tishgan. Keyingi o‘rinlarda er va xotin o‘rtasidagi **muhabbat** (39,3%) va **tushunish** (28,7%) holatlari muhim o‘rin tutishi namoyon bo‘ldi.




3-rasm. Barqaror oilaviy munosabatlarning asosini nimalar tashkil etadi? (foiz hisobida)

Oila har bir shaxs kamolotida, davlat hayotida, yangi avlodlarni tarbiyalashda, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan boqiy qadriyat hisoblanadi. Olingan natijalarga ko‘ra, o‘zbek oilalarida **oila** (85%), **farzandlar** (86,7%), **ota-ona** (83,5%) oliy qadriyat sifatida shakllangan. Mazkur holat oilaning barqaror saqlab qolinishida muhim o‘rin tutadi. Oiladagi barqaror muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va baholash

maqsadida respondentlarga yuzlanganda, ularning aksariyati er va xotin o'rtasidagi **o'zaro tushunishning yo'qligi** (47,5%), **oila a'zolarining bir-birini hurmat qilmasligi** (40,4%) hamda **xiyonat** (39,4%) holatlari oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi (3-rasm).

Oiladagi barqaror munosabatlar ko'p holatda er va xotinning o'z vazifalarini vaqtida bajarishiga bog'liq bo'ladi. Asrlar davomida ayol oilaning bekasi, farzandlarning onasi va oila mustahkamligining asosi sifatida g'aydalanib kelgan. Erkaklarning zimmasiga esa tashqi olam bilan bog'liq munosabatlar, jumladan, oilaning moddiy ta'minoti va tashqi xavflardan himoyasi yuklangan. Bugungi kunda barcha sohalaridagi taraqqiyot, rivojlanish industrial hamda postindustrial jamiyatlarga xos bo'lgan talablar, yangi imkoniyatlar ayol va erkaklarning oiladagi rollari, jamiyatdagi maqomi, oilaviy qadriyatlarining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ayol va erkakning jamiyatda hamda oiladagi vazifalari va mavqeyini o'zgarishini tadqiqi etish dolzarblashmoqda.



4-rasm. “Er va xotin oilaviy masalalarda o'zaro suhbatlashishi va birgalikda qaror qabul qilishi kerakmi?” degan savolga respondentlarning javobi (foiz hisobida)

Har beshinchi respondent (18%) (aksariyati erkaklar) faqat ayrim masalalarda maslahatlashish lozimligini, ba'zilarini o'zi hal etishi ma'qulligini aytib o'tishdi. Har o'ninchi respondent (11%) esa turmush o'rtog'iga nisbatan ishonchsizlik hissini namoyon qilgan bo'lib, ularning yarmi (6%) eng yaxshi maslahatgo'yi ota-onasi ekanligini, qolganlari esa erkak barcha masalalarni o'zi hal etishi (5%) lozimligini ta'kidlagan (4-rasm).

Xotin-qizlarning oilaviy hayotida er tomonidan tushunish holatining yo'qligi, urning ayol farzandlar tarbiyasida belgilagan ustuvor yo'nalishlarni tan olmasligi, o'zinikini ustun qo'yishi, oilaviy munosabatlarga ko'p hollarda urning yaqin qarindoshlari aralashuvi hamda rashk holatlari tufayli norozilik bildirishi, janjallashishi kuzatildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayollarning aksariyati oiladagi nizolar vaziyatlar, asosan, er va xotin dunyoqarashidagi farqlar (63%), farzandlar tarbiyasidagi turli yondashuv (43,8%), er va xotin munosabatlariga

uchinchi tomonning aralashuvi (35%) hamda rashk (33%) tufayli sodir bo'lishi aniqlandi.

Bola uchun beqarorlikning eng yomon ko'rinishi – oilaning buzilishi, ajrimdir. Yillar davomida davom etayotgan uzoq muddatli beqarorlik holatlari (nizolar, janjallar – oila ajralish arafasida) ham bolalar tarbiyasiga, ham ota-onalarning ahvoliga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onalarning qarama-qarshi talablari oilaning tarbiyaviy sa'y-harakatlarni qadrsizlantiradi. Albatta, barqarorlik oilaviy muhit bir xil va umuman o'zgarmas bo'ladi, degani emas. Oiladagi barqaror ijtimoiy muhit bolaning yoshiga, uning qiziqishlariga, paydo bo'ladigan rejalariga mos ravishda o'zgarishi, shu bilan birga umumiy ijobiy oila muhiti, bolaga qo'yiladigan talablar va hokazolar saqlanishi kerak.

Oilalarda barqaror ijtimoiy muhitni saqlashda trening dasturi va mashqlar yaxshi samara beradi. Ushbu trening dasturi oilalarda ijtimoiy barqaror muhitni yaratish, er-xotinning o'zaro bir-birini tushunish, oilada shaxslaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, nizoli vaziyatlarni bartarash etishga qaratildi.

“Men” obrazini shakllantirish uchun mashqlar. Ular quyidagi maqsadlarga erishish imkonini beradi: trening ishtirokchilariga metafora yordamida o'zini baholash imkoniyatini berish; “Men–kontsepsiya”sini aniqlash va shu asosda uning boshqa odamlar bilan aloqasini o'rnatishga ko'maklashish; o'zini boshqalarning ko'zi bilan ko'rish va boshqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.


Oilaviy qadriyatlarni aniqlash uchun mashqlar. Ular quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi: oilaviy qadriyatlar to'g'risida mulohaza yuritishni va ularning ahamiyatini oila davrasida muhokama qilishni rag'batlantirish; bir xil qiziqish va talablarga ega bo'lgan shaxslarning qadriyatlarini umumlashtirishga erishish.

Oiladagi rolini anglashga qaratilgan mashqlar quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi: trening ishtirokchilariga hamfikirlik ikki tomonlama ekanligini, uning ijobiy tomonlari va xavf-xatarlarini namoyish etishga; turlicha xulq-atvorga ega insonlarning umidlari o'zaro bog'liqligini ko'rishga; ularning istaklari va oilaviy munosabatlarini mustahkamlashda xarakterning ayrim fazilatlarini muhim ahamiyat egaligini anglashga yordam berishga; hamkorlikdagi oilaviy hayotga ta'siri haqidagi g'oyalarni tahlil qilishga qaratish.

Oilada muloqotni rivojlantirish mashqlari. Ular quyidagi maqsadlarga erishishga imkon beradi: qulay oilaviy muhitni yaratish uchun xarakterning ma'lum fazilatlarini dolzarbligini anglashga; ongli sharoitda mashq qilish va “aloqa bloklarini” bartaraf etishga, sherikka “qayta aloqa” berish qobiliyatini o'rgatish nazarda tutiladi.

Oilaviy nizolarni hal qilish bo'yicha mashqlar. Muammoga yondashuvlar xilma-xilligini ko'rsatishga imkon berishga; guruh muammosini hal qilish jarayonida oila a'zolarining e'tibori va ijobiy tasavvurini safarbar qilishga; oilaning ichki kommunikativ salohiyatini yangilashga; muammo bo'yicha qarama-qarshi qarashlar bilan bog'liq ichki kelishmovchilikka; ziddiyatlarni bartaraf etish uchun treninglar o'tkazishga; nizosiz o'zaro ta'sir qilish va ijobiy fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratishdan iborat.

Muammoli vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlar. Nizolarning o'zaro ta'siri bilan birga keladigan hissiy holatlarni o'rganishga; buzg'unchi irratsional e'tiqodlarni bartaraf etishga; hal qilinmagan mojaroning ikkilamchi afzalliklarini o'rganishni nazarda tutadi.



5-rasm. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish modeli

Barqaror va farovon oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik strukturlashgan modelining maqsadi oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Ushbu model oilaning barqarorligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni o'rganish, oilalar barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik trening dasturini yaratish, oila institutini mustahkamlashda er va xotinlarning oiladagi rollari taqsimoti mutanosibligini o'rganish va barqaror oilani yaratishda turmush o'rtoqlarning ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlash kabi vazifalarni yechish asnosida shakllangan. Barqaror va farovon oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik strukturlashgan modeli o'z ichiga quyidagi sistemali komponentlar va texnologiyalarni oladi: Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish modeli oilada barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashda oila a'zolari xulq-atvorining boshqa odamlarning umidlariga bog'liqligini namoyon etish; hukmron fikr, noto'g'ri qarashlar, ataylab qabul qilingan qarorlarning oilaviy hayotda namoyon bo'ladigan xatti-harakatlarga ta'sirini anglash; turmush o'rtoqlarga o'z nikohlariga qarashga, bir-birlariga yangicha nigoh bilan qarashga imkon beradi. Oilada shaxslararo munosabatlardagi ichki to'siqlar, qo'rquv va noaniqlikni yengish mexanizmlarida o'z aksini topgan. Ijtimoiy barqaror muhitga ta'sir qiluvchi stereotiplarni o'zgartirish, oilaviy muammolar yondashuviga pedagogik va psixologik mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Diagnostic komponent – oiladagi barqaror ijtimoiy munosabatlarning dastlabki darajasini aniqlash.

Maqsadli-faoliyatli komponent – oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashga mo'ljallangan pedagogik-psixologik trening dasturi ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ta'lim texnologiyalari – modellashtirish, oilaviy tasavvurni rivojlantirish, konstruksiyalash, muloqotni rivojlantirish, o'yin vaziyatli, ijodiy tasviriy, ijtimoiy moslashuv texnologiyalari, ko'rgazmali-vizual.

O'zbek jamiyatida oilali bo'lish o'ziga yarasha maqom belgisi bo'lib, aksariyat holatlarda insonning oilali bo'lishi motiv sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, oilali bo'lish, nafaqat jamiyatda erishilgan maqom, balki, eng avvalo, farzandli bo'lish istagi ekanligini namoyon etdi. O'zbek jamiyatida oila va nikoh qurilganida ayrim holatlarda jamiyatdagi an'analar, milliy stereotiplar va ota-onaning (oilalarning) o'z yoshlarning shaxsiy istak va xohishiga nisbatan ustun turishini ko'rish mumkin.

O'zbek oilalarida oila (85%), farzandlar (86,7%), ota-ona (83,5%) oliy qadriyat sifatida shakllangan hamda o'zaro ishonch hissi, farzandlarning borligi, muhabbat va tushunish oiladagi munosabatlarning barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Oilani moddiy jihatdan ta'minlash erkaklarning asosiy vazifasi bo'lgani uchun ular uchun ishning borligi hamda kasbiy o'sish ayollarga nisbatan qadrliroq sanaladi. O'zbek oilalarida murosa qilish, samimiy munosabatlar va o'zaro qo'llab-quvvatlash oiladagi barqaror muhitni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

So'rovda ishtirok etganlarning aksariyati (70%) barqaror oilaviy hayotning asosini er va xotinning o'zaro suhbatlashishi va oiladagi qarorlarni bamaslahat qabul

qilishi ekanligini e'tirof etishi muhim ijobiy ko'rsatkich sanaladi. Faqat salomatlik masalalarida erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq holatda turmush o'rtog'i bilan maslahatlashishi aniqlandi.

Aksariyat o'zbek oilalarida ayol va erkaklarning oiladagi vazifalari yuzasidan sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmagan bo'lsa-da, onalar tomonidan uy yumushlariga ko'p vaqt ajratishi ko'p holatlarda katta o'zbek oilalarida ushbu vazifalarni qaynona yoki oilaning boshqa a'zolari, nuclear oilalarda esa urning oilani moddiy ta'minlash bilan birgalikda farzandlarni tarbiyalashda mas'uliyati ortganini ko'rish mumkin. Natijada oiladagi farzandlar parvarishida ko'p jihatdan onalarning ishtiroki ko'p bo'lsa, farzandlar tarbiyasida otalarning o'rnini ortib botayotganini ko'rsatmoqda.

Respondentlarning o'z jufti bilan kelajak rejalari (76,1%) va farzandlari tarbiyasi (66,7%), ayrimlarining barcha masalalarda maslahatlashishi oila barqarorligining muhim ijobiy ko'rsatkichi sifatida baholanishi mumkin. Murakkab oilalardagi barqarorlik shartlari hamda omillarini o'rganishda nafaqat ota-ona va farzandlar, balki oila kattalarining ham o'rnini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Oilalarning aksariyatida ayollar o'z erining fikri va nuqtai nazariga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsata olishi, ayollarning ham oilaviy qarorlarda muhim o'rin tutishidan dalolat bermoqda. Oiladagi barqaror muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omillar sifatida er va xotin o'rtasidagi o'zaro tushunishning yo'qligi (47,5%), oila a'zolarining bir-birini hurmat qilmasligi (40,4%) va xiyonat (39,4%) namoyon bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlaridagi oiladagi barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillariga muvofiq yakuniy tajriba va dastlabki tajriba paytida olingan natijalarning statistik tahlilini Fisherning kriteriysi orqali tekshirish olib berildi va unda Fisher kriteriysining empirik qiymatini hisoblovchi formulasi orqali tekshirildi.

$$\varphi_{emp} = |2\arcsin\sqrt{p_1} - 2\arcsin\sqrt{p_2}| \cdot \sqrt{\frac{n_1 \cdot n_2}{n_1 + n_2}}$$

Bu yerda p_1, p_2 ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari, n_1, n_2 lar mos ravishda tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi respondentlar soni, $\varphi_{krit}(0.05) = 1.67$. Ushbu mezon asosida quyidagi statistik gipoteza ilgari surildi.

H_0 gipoteza sifatida $\varphi_{emp} < \varphi_{krit}$, ya'ni olingan natijalarda farq yo'q, H_1 gipoteza sifatida esa $\varphi_{emp} > \varphi_{krit}$, ya'ni olingan natijalarda farq mavjud va u samaradorlikka ega deb olamiz.

Ushbu olingan natijalarning samaradorlik ko'rsatkichlari, ularning ishonchligi va keltiriltirilgan xulosalarning haqqoniyligini tekshirish maqsadida matematik statistik formulalar orqali tekshirildi. Bunga statistikaning ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlarining samaradorligini aniqlashda tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarning nisbati va Fisher kriteriysi orlali tekshirildi.

Fisherning statistik qiymatlari va xulosasi

№	Barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari	Ijobiy munosabat		Fisherning empirik qiymati	Fisherning kritik qiymati	Xulosa
		Trening o’tkazishdan oldin	trening o’tkazilganda n keyin			
Er-xotin birgalikda						
1.	O’zaro ishonch	77,2%	91,5%	7,67	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi
2.	Oilaviy qadriyatlarga munosabat	62,8%	72,6%	3,96	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi
3.	Farzand tarbiyasidagi yakdillik	75,9%	90,9%	7,86	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi
4.	Nizolarni tinch yo’l bilan hal qilishga intilish	79,2%	91,8%	6,91	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi
5.	Bir-biriga nisbatan kechirimlilik	75,3%	83,8%	4,01	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi
6.	Bir umr birga yashash istagi	71,3%	89,8%	9,12	1,67	$\varphi_{\text{ЭМП}} > \varphi_{\text{КРИТ}}$ bo’lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi

Er-xotin birgalikda barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillarining ijobiy munosabatlar dinamikasiga ko'ra, trening mashg'ulotidan oldin er-xotin birgalikda o'zaro bir-biriga ishonchi 77,2% dan 91,5%, oilaviy qadriyatlarga munosabat 62,8% dan 72,6% ga, farzand tarbiyasidagi yakdillik 75,9% dan 90,9% ga, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilish 79,2% dan 91,8% ga, bir-biriga nisbatan kechirimlilik 75,3% dan 83,8% ga, bir umrga yashash istagi 71,3% dan 89,8% ga ko'tarilib, trening ijobiy tarafga samara berganini kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib, oilaviy ijtimoiy barqaror munosabatlar psixologiyasi hamda pedagogikasi sohasida to'plangan tajribani ayrim eng yangi tadqiqotlar misolida o'rganish asosida quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Oilaviy ijtimoiy munosabatlarni turli ijtimoiy-psixologik, pedagogik omillar ta'siri xususiyatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos indikator sifatida o'rganish

zamonaviy oila psixologiyasi hamda pedagogikasining alohida yo'nalishi sifatida ajratilishi mumkin.

2. Oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy barqaror munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik omillarni o'rganishda ularni shartli ravishda uch guruhga – oila a'zolarining guruhiiy mansubligi, ijtimoiy-psixologik tipologiyasi hamda oilaning obyektiv-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq omillar guruhlarini ajratish o'rinli.

3. Oilaviy hamda ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim ijtimoiy-psixologik omillar birinchi raqamli ta'sirlovchi sifatida bevosita o'zi to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatsa, boshqa ayrim omillar vositachi-moderator ko'rinishida namoyon bo'ladi.

4. Barqaror oilaviy munosabatlarni yaratish bu o'ziga xos motivatsiya bilan tavsiflangan va ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan maqsadga muvofiqlik shaklini aks ettiruvchi oiladan oldingi munosabatlar bosqichidir. Oilagacha bo'lgan munosabatlarning barqaror oila rivojlanishining bosqichi sifatida taqdim etilishi oilagacha bo'lgan munosabatlar davrini uslubiy jihatdan ajratib ko'rsatish yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

5. Oilada barqaror ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi o'zbek xalqi axloqiy odatlarining mustahkamligi, asosan, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyada o'z aksini topganligi uchun er-xotining bir-biriga nisbatan ishonchiga alohida ahamiyat berilishi kerakligi aniqlandi.

6. Er-xotinlarning munosabatlarida qay darajada oilaviy muhit omillariga moslashganligini aniqlashda uning shaxsiy sifatlarida nomoyon bo'ladi va farzandning kamolotida bu oila barqarorligi aks etganligi ko'rinadi.

7. Er-xotinlarning oilaga ijtimoiy moslashuvi jamiyatga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq holda o'zgarib boradi va bu vaziyatda ular milliy qadriyatlarga amal qilgan holda oilani barqarorlashtirish darajasini orttirib boradilar.

8. Oiladagi ijtimoiy moslashuv turli munosabatlar mikromuhitida yuz beradi. Oiladagi barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash jarayonining asosi bu oiladagi er-xotinlarning muhitga moslashuvi bo'lib, uning ta'sirida barkamol shaxs tarbiyalanadi va u oiladagi turli munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ «СЕМЬЯ И ЖЕНЩИНЫ»**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
«СЕМЬЯ И ЖЕНЩИНЫ»**

ЮЛЧИЕВА ДИЛДОРА ХАБИБУЛЛАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ СОЦИАЛЬНЫХ
ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ**

13.00.09 – Социальная педагогика

**Автореферат диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

Ташкент – 2023

Ш.М.Содикова
Председатель научного семинара
при ученом совете по
присуждению ученой степени,
доктор социологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире остро стоит проблема семейных отношений, их влияние на развитие человека, определение зависимости социальных факторов от благополучия семьи, создание социально-педагогического механизма, направленного на повышение уровня счастья семей. Одним из приоритетных направлений является дальнейшее совершенствование всестороннего воспитания детей в семье, обеспечение стабильности семейных отношений, расширение педагогических возможностей. В развитых странах при постановке своих жизненных целей, регулировании семейных отношений важно создание важного направления в воспитании ребенка, т. е. создание стабильной семьи - места воспитания, налаживание семейных отношений и создание практических способов подготовки молодежи к семье².

В современном мире в нескольких научно-исследовательских центрах ведутся научно-исследовательские работы по таким вопросам, как обеспечение целостности воспитания в формировании всесторонне развитого поколения, установление устойчивых отношений между личностями в обществе в сотрудничестве семьи и образовательных учреждений. В частности, в условиях стремительного развития глобализации главной целью многих стран является создание благоприятных условий для общества, социальной системы, социального института, социализации статуса личности, развития детей, в частности, путем организации устойчивых социальных отношений в семейной среде. Также следует установить комплекс мероприятий, направленных на вопросы духовно-нравственного, экономико-социального воспитания, проводить исследования в центрах подготовки молодежи к семейной жизни.

Для дальнейшего повышения общественно-политической активности женщин в нашей стране создаются необходимые условия для проявления ими своих способностей в различных областях и отраслях, обеспечивается безусловный условия соблюдение их законных интересов, оказывается всесторонняя поддержка материнству и детству, а также проводится ряд работ по укреплению института семьи. Современное состояние работы в данной сфере свидетельствует о наличии ряда системных проблем и недостатков, препятствующих созданию эффективных механизмов всесторонней поддержки женщин, проведению с ними адресной работы, укреплению морально-нравственной среды в семьях и улучшению здоровья.

Данная научно-исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, как Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» от 7 марта 2022 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5938 «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также

² Helping Families Combat Substance Use: Connecticut Family Stability Project https://govlab.hks.harvard.edu/files/connecticut_pfs_project_feature.pdf

поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» от 18 февраля 2020 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3808 «Об утверждении Концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан», Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-561 «О защите женщин от притеснений и насилия» от 2 сентября 2019 года, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 820 «О мерах по дальнейшему развитию института семьи и подготовке молодежи к семейной жизни» от 31 декабря 2020 года, а также определенных в других нормативных правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Формирование и пути реализации системы инновационных идей по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-нравственному развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Проблема обеспечения устойчивых социальных отношений в семье на сегодняшний день является одной из сложных, междисциплинарных проблем. Его теоретико-методологическая база выражается не только в виде общесоциально-психологических, педагогических, философских исследований, но и в социологических работах. Отдельно к этому вопросу обращались восточные мыслители А. Фитрат, А. Авлони, М. Бехбуди, Кайковус, Фараби, Ибн Сина.

